


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2026

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 1, yanvar

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor

Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Акрамова Т.К.	Литературный и художественный перевод: сходство и различия (на материале произведений Эдгара Аллана по)	92
Сергеевна А.Ш.	Личность и творчество Паустовского — пример гармонии человека с миром	96
Машарипова С.А.	Проблемы перевода литературы об амире тимуре с английского на русский и предполагаемые пути пешения	101
Кенджаева Г.Ф., Убайдуллаева Ф.Э.	Социальное толкование культурных традиций в рассказе О. Генри “два джентльмена в день благодарения”	105
Baltabaeva N.K.	Qoraqalpoq adabiyotida balladalar	109
Toshtemirova S.J.	Alisher Navoiyning poetik mahorati	114
Kasimova R.R., Aslonova R.A.	Analysis of the psychology of the hero in Jack Ritchie’s prose	119
Kasimova R.R., Kahramanova S.N.	Life worth living: ethical conflict in “me before you” Jack Ritchie’s contribution to contemporary american literature	123
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., Ibroimova M.N.	Alisher Navoiyning Jomiy g’azaliga yozgan tavlili	127
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Raxmonov K.J.	Buxoro yahudiylari: ularning dunyo bo‘ylab tarqalishi, turmushi va kundalik hayoti tarix ko‘zgisida (eng qadimgi zamonlardan 1920-1930-yillarga qadar)	130
To‘rayeva G.B.	XIX – XX asr boshlarida Buxoro shahri hunarmandchiligi va kasblar bo‘yicha ixtisoslashuv tizimi: O.A. Suxareva materiallari asosida	137
Tursunov N.N., Bekmuratov D.P.	Buxoro amirligi davrida tibbiyot tizimi (surxon vohasi misolida)	144
Ulugova M.Z.	Shohi-zinda me’moriy majmuasining Ulug‘bek hukmronligi davrida qurilishi va ta’mirlanishi tarixi (tarixiy-me’moriy lavhalar XV asr)	151
Ahmadova Z.Sh.	2017–2024-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	156
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Avazov K.X.	Jamiyatda xavfsizlikni ta’minlashdagi ijtimoiy-siyosiy omillarning zamonaviy xususiyatlari	162
Karshiyev B.E.	Globalashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikni ta’minlashda mediasavodxonlikning o‘rni	168

XIX – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO SHAHRI HUNARMANDCHILIGI VA KASBLAR BO'YICHA IXTISOSLASHUV TIZIMI: O.A. SUXAREVA MATERIALLARI ASOSIDA

To'rayeva Guli Bahriddinovna,

*Buxoro davlat universiteti arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi
turayevaguli8@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX – XX asr boshlarida Buxoro shahri hunarmandchiligining shakllanishi, rivojlanishi va kasbiy ixtisoslashuv xususiyatlari O.A. Suxareva tadqiqotlari asosida tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hunarmandchilikning asosiy tarmoqlari, ularning guzarlar tizimi bilan bog'liqligi hamda shahar ijtimoiy tuzilmasidagi o'rni yoritiladi. Suxarevaning dala materiallari va arxiv manbalariga tayangan holda kasbiy guruhlarining shahar hayotidagi funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Buxoro shahrining an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy hayotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda Markaziy Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va kasbiy ixtisoslashuv masalalarini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Buxoro shahri, hunarmandchilik, kasblar bo'yicha ixtisoslashuv, guzarlar tizimi, shahar ijtimoiy tuzilmasi, tarixiy-etnografik tahlil, XIX–XX asr boshlari, O.A. Suxareva.

РЕМЕСЛЕННОЕ ПРОИЗВОДСТВО ГОРОДА БУХАРЫ И СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ.: НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ О.А. СУХАРЕВОЙ

Аннотация. В данной статье историко-этнографически анализируются формирование, развитие и особенности профессиональной специализации ремесленного производства города Бухары в конце XIX – начале XX вв. на основе исследований О.А. Сухаревой. В исследовании рассматриваются основные отрасли ремесел, их связь с системой гузаров, а также роль в социальной структуре города. На основе полевых материалов Сухаревой и архивных источников раскрывается функциональное значение профессиональных групп в городской жизни. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию традиционной социально-экономической жизни Бухары и представляют собой важную научную основу для изучения вопросов ремесленного производства и профессиональной специализации в городах Центральной Азии.

Ключевые слова: город Бухара, ремесленное производство, профессиональная специализация, система гузаров, социальная структура города, историко-этнографический анализ, конец XIX – начало XX вв., О.А. Сухарева.

CRAFT PRODUCTION IN THE CITY OF BUKHARA AND THE STRUCTURAL-FUNCTIONAL SYSTEM OF OCCUPATIONAL SPECIALIZATION IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES: EVIDENCE FROM O.A. SUKHAREVA'S MATERIALS

Abstract. This article presents a historical-ethnographic analysis of the development, organization, and structural-functional characteristics of craft production and occupational specialization in the city of Bukhara during the late nineteenth and early twentieth centuries, based on the materials of O.A. Sukhareva. The study systematically examines the principal craft sectors, their integration within the guzar system, and their role in the socio-spatial structure of the city. Utilizing Sukhareva's fieldwork data and archival sources, the research highlights the functional significance of professional groups in urban life. The findings provide a comprehensive understanding of Bukhara's traditional socio-economic organization and offer a valuable framework for comparative studies of craft production and occupational specialization in Central Asian urban contexts.

Key words: Bukhara, craft production, occupational specialization, guzar system, socio-spatial structure, professional groups, historical-ethnographic analysis, late 19th – early 20th centuries, O.A. Sukhareva

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro shahri Markaziy Osiyoning madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri hisoblangan. Shahar hayotida hunarmandchilik muhim o'rin tutgan. Shahar aholisining kundalik turmush tarzi va hunarmandchilik tarmoqlarining ixtisoslashuvi, mahalla (guzar)

tizimining hunarmandlar guruhi bilan uzviy bog'liqligi Buxoro shahrining ijtimoiy tuzilmasini belgilovchi asosiy omillardan biri edi. Buxoro shahar hunarmandchiligi 40 dan ortiq tarmoqqa bo'lingan, temirchilik, zargarlik, mato ishlab chiqarish, qurilish hunarmandchiligi, terini qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati va boshqa kasblar nafaqat shahar aholisi ehtiyojini qondirgan, balki tashqi savdoda ham o'z mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan. Shahar guzarlari nomlanishida hunarmandlar faoliyati bilan bog'liq holat keng tarqalgan. Aholining kasb-hunar faoliyati ko'pincha shu mahallalarning nomlarida ham o'z aksini topgan. O'rganilayotgan davrda Buxoroning 23 ta mahallasi turli kasb egalari nomi bilan atalgan. Masalan, Degrezi, Mexchagaron, Misgaron, Charmgaron, Kulolon, Po'stindo'zon guzarlarining nomlanishida hunarmandchilik faoliyati aks etgan.

Ushbu masalalarni o'rganishda taniqli etnograf olimi O.A. Suxarevaning tadqiqotlari alohida ilmiy qiymatga ega. Olimaning Buxoro shahrida olib borgan dala tadqiqotlari, etnografik kuzatuvlari va tahlillari hunarmandchilikning tarixiy shakllari hamda kasbiy ixtisoslashuv jarayonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. O.A. Suxarevaning 1962-yilda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyotida chop etilgan "Позднефеодальный город Бухара конца XIX — начала XX века. Ремесленная промышленность" nomli ilmiy monografiysi diqqatga sazovordir. Ilmiy asar to'qqiz bobdan iborat bo'lib, unda Buxoro shahri hunarmandchiligi, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish munosabatlari, hunarmandlarning kasbiy ixtisoslashuvi batafsil yoritilgan. Monografiyada metalga ishlov berish, zargarlik buyumlari tayyorlash, ipak va paxta tolali matolarni ishlab chiqarish, to'quvchilik, qurilish hunarmandchiligi, terini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hunarmandlar (nonvoylar, qassoblar, qandolatchilar) kabi faoliyat turlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, tosh teruvchilar, duradgorlar, etikdo'zlar, tikuvchilar, mo'ynali kiyim va bosh kiyim tayyorlovchilar, zardo'zlik hunari, ganchkorlik, yog'ochga ishlov berish, sovun tayyorlash, sham quyish va chodirlar tayyorlovchilar faoliyati ham tadqiq etilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi O.A. Suxareva materiallari asosida XIX – XX asr boshlarida Buxoro shahri hunarmandchiligi va uning kasbiy ixtisoslashuv xususiyatlarini tarixiy-etnografik tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoroda hunarmandchilik faoliyati XVI–XIX asrlarda muhim iqtisodiy tarmoq hisoblangan. Bu davr hunarmandchiligi shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, etnik tarkibi va bozor munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mazkur mavzu bo'yicha manbalar va tadqiqotlarni bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

1. Nashr etilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar

M. Yu. Yuldashevning "К вопросу о ремесленном производстве в Бухарском ханстве в XVI–XVIII веках." (1961) maqolasida Buxoro hunarmandchiligi ishlab chiqarishining xonlik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini tizimli ravishda yoritadi. Muallif asosan rasmiy manbalar va tarixiy kuzatuvlar asosida hunarmandchilik tarmoqlari, mahsulot sifati va bozor munosabatlarini tahlil qiladi [1]. R. Qilichevning Buxoro shahrida hunarmandchilik (1996) va XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik. nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati (1997) mustaqillikda keyin nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar sirasiga kiradi.

2. Sayyohlik va ilmiy kuzatuv xarakteridagi tarixiy manbalar

Antoni Jenkinson 1558-1560-yillarda Rossiya orqali Markaziy Osiyoga, jumladan, Buxoro xonligiga safar qilgan. Uning safar qaydlari XVI asr o'rtalarida Buxoro shahri va uning iqtisodiy hayoti, savdo munosabatlari, hunarmandchilik faoliyati hamda shaharning umumiy ijtimoiy-madaniy manzarasini yorituvchi muhim manbadir. Uning "Путешествие в Среднюю Азию, 1558—1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке." (1937) nomli asarida Buxoro hunarmandlari va tashqi savdo haqida "Buxorodan hindlar ipak matolarni olib ketishadi, rus savdogarlari esa paxta mahsulotlari, turli navdagi ipak va matolarni bu yerdan xarid qilishlarini" ta'kidlaydi [2].

Baron Meyendorffning "1820 yilda Orenburgdan Buxoroga amalga oshirilgan sayohat" nomli asari (1826) esa XIX asr boshlarida Buxoro amirligining savdo-iqtisodiy hayoti va shahar hunarmandchiligi haqida ma'lumot beradi. Muallif hunarmandchilikning to'qimachilik, matoni bo'yash va naqsh tushirish, poyabzal tayyorlash kabi tarmoqlari, bozorlardagi mahsulotlar turlari, shuningdek, hunarmandlarning ijtimoiy mavqeiga doir qimmatli kuzatuvlarni keltiradi. Meyendorffning qaydlari Buxoro shahrining tashqi savdo aloqalari va hunarmandchilik ishlab chiqarishining mintaqaviy integratsiyasini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

A. Vamberi (1865) va Markaziy Osiyo bo'ylab amalga oshirgan sayohatlari davomida Buxoro shahrining madaniy muhitini, shahar aholisi turmush tarzi hamda hunarmandlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni va jamiyatdagi mavqeini bevosita kuzatuvlarga tayangan holda tavsiflaydi. Buxoro hunarmandchiligi tarmoqlari orasida ayrim sohalar yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turgan. Jumladan, yuqori sifatli teri mahsulotlari ishlab chiqarilib, ular asosan egarsozlik va poyabzal tayyorlashda keng qo'llanilgan. Shuningdek, ipakdan qog'oz ishlab chiqarish hunari o'zining noyobligi va murakkab texnologik jarayoni bilan ajralib turib, mahalliy hunarmandchilik madaniyatining yuqori darajada

rivojlanganidan dalolat beradi. Biroq ayrim hunarmandchilik tarmoqlarida muayyan cheklovlar ham kuzatilgan. Xususan, metallga ishlov berish sohasida temir va po‘lat buyumlar ishlab chiqarish hajmi nisbatan kam bo‘lgan. A. Vamberi bu holatni hududda metall xomashyosining yetishmasligi bilan izohlaydi. Ushbu omillarga tayanib, A. Vamberi Buxoroning ko‘proq savdo va qayta ishlash markazi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi [4].

N. Xanikov (1843) [12] va **M. M. Solovyov (1936)** asarlarida ham Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy hayoti, hunarmandlar qatlamining shahardagi ijtimoiy maqomi va iqtisodiy hayotdagi o‘rni masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. Iqtisodiy hayot va hunarmandchilik faoliyatini yorituvchi ilmiy maqolalar

G. Golovin “Кустарные промыслы Туркестана // Вестник выставки “(1909) nomli maqolasida Turkiston hududidagi kустar (uy hunarmandchiligi) ishlab chiqarish turlarini statistik va tavsifiy materiallar asosida yoritadi. Muallif hunarmandchilikning hududiy taqsimoti, asosiy tarmoqlari hamda mahsulotlarning bozor uchun ishlab chiqarilish darajasiga e‘tibor qaratadi. Golovin Buxoro va unga tutash hududlardagi hunarmandchilik faoliyatini mintaqaning umumiy iqtisodiy tizimi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatadi [5].

N. F. Grebenkin esa “Turkiston to‘plami”ning 52-jildida e‘lon qilingan maqolasida Zarafshan okrugi aholisi, xususan tojik hunarmandlarining kasbiy faoliyatini etnografik kuzatuvlar asosida tahlil qiladi. Muallif hunarmandchilik turlarining mahalliy xususiyatlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va kasbiy ixtisoslashuv masalalarini yoritib, hunarmandchilikning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rnini ochib beradi [6].

4. Nashr etilmagan qo‘lyozmalar va tarixiy- etnografik tadqiqotlar.

O.A.Suxareva quyidagi tadqiqotlardan “Позднефеодальный город Бухара конца XIX — начала XX века. Ремесленная промышленность” nomli ilmiy monografiyasini tayyorlashda unumli foydalanadi.

P. A. Goncharova tomonidan tayyorlangan, Buxoro zardo‘zlik hunariga bag‘ishlangan qo‘lyozma O‘zSSR San‘at muzeyi arxivida № 269 raqam ostida saqlanadi. Mazkur manba 1986 yilda nashr qilingan va zardo‘zlik buyumlarining tayyorlanish texnologiyasi, bezak motivlari hamda ushbu hunarning Buxoro shahridagi ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yoritishi bilan alohida ilmiy qiymatga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir [7].

V. S. Zatvornitskayaning qo‘lyozmasi (№ 58) Buxoro misgarligi hunarini ko‘p yillik kuzatuvlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda misgarlarning mehnat jarayoni, asbob-uskunalari, mahsulot turlari va hunarmandlar muhitidagi kasbiy an‘analari batafsil bayon etilgan bo‘lib, ushbu manba shahar hunarmandchiligining ichki tuzilishini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi [12].

N. V. Rusinova tomonidan to‘plangan materiallar Buxoro va uning qishloq hududlarida rivojlangan matoga naqsh solish hamda boshqa hunarmandchilik tarmoqlarini yoritadi. Xususan, muallif tayyorlagan maxsus albom mato ishlab chiqarish texnikasi, naqshlar repertuari va mahalliy uslubiy xususiyatlarni vizual materiallar orqali aks ettirishi bilan diqqatga sazovordir. Ushbu materiallar O‘zSSR San‘at muzeyida saqlanadi [13]. 1940 yilda M. S. Andreyev rahbarligida tashkil etilgan ekspeditsiya davomida N. V. Rusinova tomonidan to‘plangan materiallar Buxoro hunarmandchiligining ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy tuzilishini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Mazkur majmua hunarmandlar bilan o‘tkazilgan suhbatlarning yozuvlari, mato va ip ishlab chiqarish, shuningdek, kamroq darajada ko‘nchilik, misgarlik, qurilish va boshqa hunar turlari haqidagi muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Qo‘lyozmaning nashrga tayyorlangan nusxasi O‘zRFA Etnografiya bo‘limi ilmiy arxivida, asl dala yozuvlari esa Samarqanddagi O‘zbekiston milliy madaniyati muzeyida saqlanadi [14].

Asosiy qism. O. A. Suxarevaning 1958-yilda nashr etilgan “К истории городов Бухарского ханства (Историко-этнографические очерки)” nomli monografiyasida Buxoro shahrining tarixiy taraqqiyoti, hunarmandchilik an‘analari va madaniyatining shakllanish hamda rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilingan. Asar ikki asosiy qismdan iborat.

Muallif asarning ikkinchi qismida XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlari aholisi tarkibining etnik ko‘rinishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy an‘analari har tomonlama tahlil qilgan. Xususan, hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlari, kasb-hunarlarning ixtisoslashuvi, mahalliy aholining kundalik turmush tarzi, urf-odatlar va diniy e‘tiqodlari haqida keng qamrovli ilmiy ma‘lumotlar taqdim etilgan.

XIX – XX asr boshlarida Buxoro shahrida hunarmandchilikka ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo‘lib, mahalla nomlari o‘tmishda bu hududlarda muayyan kasb egalari yashaganini aks ettiradi. Bu holat ayrim mahallalarning kasbiy uyushmalar bilan bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda hunarmandchilikka asoslangan hududiy ixtisoslashuv XIX – XX asr boshlarida ham saqlanib qolgan. Jumladan, Bo‘yrobefon mahallasi shahar hududidagi bo‘yra to‘quvchilarining asosiy markazi bo‘lib, ushbu hunar bilan shug‘ullanuvchi aholining deyarli barchasi mazkur mahallada jamlangan. Kemuxtgaron

mahallasida esa teri oshlash bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar, xususan, maxsus turdagi teri — *kemuxt* ishlab chiqaruvchilar istiqomat qilgan.

O'rganilayotgan davrda Buxoro shahrida ayrim kvartallar chegaralarining hunarmandchilik faoliyati tarqalgan hududlar bilan mos kelishi, odatda ishlab chiqarish hajmi cheklangan tarmoqlarda kuzatilgan. Bunday holat hunarmandchilik mahsulotlari asosan tor doiradagi iste'molchilar ehtiyojini qondirgan, hunarmandlar soni esa nisbatan kam bo'lgan sharoitlarga xos bo'lgan.

Shu bilan birga, XIX – XX asr boshlarida ayrim hunarmandchilik tarmoqlari yuqori darajada rivojlanib, ularning faoliyati alohida kvartal doirasidan chiqib, bir necha, ko'pincha hududiy jihatdan yaqin mahallalarni hamda shahar devorlari tashqarisida yashovchi aholining sezilarli qismini qamrab olgan. Bunday vaziyat, odatda, mahsulotlari ichki ehtiyojni qondirish bilan bir qatorda tashqi bozorlarga ham yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlariga xos bo'lgan. Mazkur jarayonning eng yorqin misollaridan biri to'qimachilik sohasidir. O.A.Suxarevaning o'g'zaki tadqiqotlarida, xususan, qariyalar va to'qimachilar xotiralariga ko'ra, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro shahrida va unga tutash hududlarda taxminan 12 mingga yaqin to'quv dastgohi faoliyat yuritgan[15].

Odatda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullangan aholi yashaydigan mahallalar shahar chekka hududlarida joylashgan. Mazkur holat feodal shaharlarning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan izohlanadi. Chunki bunday kvartallar dastlab shahar atroflarida vujudga kelgan an'anaviy hunarmand aholi punktlari — *rabodlar* shaklida paydo bo'lgan bo'lib, keyinchalik yangi shahar devorlari barpo etilishi jarayonida shahar hududiga qo'shib yuborilgan.

Buxoro shahrining g'arbiy chekka hududi, ayniqsa, to'qimachilik faoliyati bilan mashhur bo'lgan. Ushbu hunarmandchilik bir nechta ixtisoslashgan tarmoqlar asosida rivojlangan bo'lib, aholi orasida keng tarqalgan va deyarli barcha mahallalarni qamrab olgan. To'qimachilikning ayrim turlari Xiyobon ko'chasidan sharqda joylashgan guzarlarda ham uchraydi. Shaharning ushbu qismida ham to'qimachilik bilan shug'ullanuvchi aholi yashagan.

To'qimachilik ustaxonalari joylashgan mahallalardan biri Korxona mahallasi bo'lib, u shahristonning sharqiy qismida joylashgan. Garchi bu hududdagi to'qimachilar soni nisbatan kam bo'lgan bo'lsa-da, Korxona mahallasi qadimdan to'qimachilik rivojlangan hudud sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan. Buni ushbu hududda faoliyat yuritgan va to'qimachilik bilan bevosita bog'liq bo'lgan ikki bozorning mavjudligi tasdiqlaydi.

Shaharning shu hududida, xususan Shoi-Axsi mahallasida nozik ipak choyshablar — *kalgay* ishlab chiqarish markazi jamlangan edi. Ushbu mahsulotlar batik usulida bezatilgan bo'lib, ularni tayyorlash uchun ishlatilgan ipak asosan Farg'ona vodiysidan keltirilgan. Ayrim hollarda ipak xomashyosi Buxoroda istiqomat qiluvchi yahudiy to'qimachilar tomonidan ham yetkazib berilgan.

Ayrim etnik guruhlar muayyan turdagi matolarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Jumladan, forslar asosan sof ipak va ipak aralash matolar, barxat hamda nozik choyshablar (*tirma*) ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Asl buxoroliklar, tojiklar va tojik tilida so'zlashuvchi o'zbeklar esa asosan yarim ipak va paxta matolarini ishlab chiqarish bilan band bo'lib, chiziqli matolar — *bekasab*, *alocha*, *adras* kabi mahsulotlarni tayyorlaganlar. Xususan, bekasaba va adras matolari Puxtabofon mahallasida ishlab chiqarilgan.

Boshqa to'qimachilik tarmoqlaridan nisbatan mustaqil hunarmandchilik turi sifatida keng to'qilgan matoli kamarlar — *tagband* ishlab chiqarish alohida ahamiyat kasb etgan. Ushbu mahsulotlar asosan yuqori ijtimoiy qatlam — saroy ayonlari va mulkdor tabaqa ehtiyojlari uchun tayyorlangan. Mazkur hunarmandchilik turi Tagbandbofon mahallasida markazlashgan bo'lib, mahalla nomining o'zi ham ushbu kasbiy ixtisoslashuv bilan bevosita bog'liqdir.

XIX–XX asr boshlarida Buxoro shahrida charm ishlovchilar bir necha hududda nisbatan yirik kasbiy guruhlar sifatida shakllangan. Ularning ikki guruhi shahar darvozalariga yaqin joylashgan bo'lib, biri Shergiron darvozasi yaqinidagi Charmgaron mahallasida, ikkinchisi esa Sallohxona darvozasi atrofidagi Arabon mahallasida faoliyat yuritgan. Darvozalar yaqinida charm mahsulotlarini qayta ishlash va quritish uchun maxsus maydonlar ajratilgani ushbu joylashuvning amaliy va sanitariya talablariga mos kelganini ko'rsatadi. Uchinchisi shahar shimolidagi Iskandarxon mahallasida joylashib, bu yerda charمنى qayta ishlash va quritish uchun keng hududlar mavjud bo'lgan. To'rtinchi guruh esa, ehtimol, eng qadimgi hisoblanib, shahar markazidagi qadimiy shahriston hududida — Kemuxtgaron mahallasida faoliyat ko'rsatgan. Garchi charm ishlab chiqarish noxush hid bilan bog'liq bo'lsa-da, aynan shu hududda maxsus va sifatli charm turlari tayyorlangani manbalarda qayd etiladi.

Buxoro hunarmandchiligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan temirchilik va metall buyumlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ustalar umumiy tarzda “chelongar” nomi bilan atalgan. Ushbu kasb egalari an'anaviy ravishda shaharning ikki yirik hunarmandlar mavzesida — Axtachi va Amiri mahallalarida zich joylashgan. Arxeologik va etnografik kuzatuvlar mazkur hududlarda aholining katta qismini aynan

chelongarlar va ularning oilalari tashkil etganini ko'rsatadi. Bu holat Buxoroda kasbga asoslangan mahalla tizimi va avloddan-avlodga o'tuvchi hunarmandchilik an'analarining mustahkamligini tasdiqlaydi.

Tarixiy-etnografik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro hunarmandchilik tizimida metall quyish ishlari (bronza, mis va temirni eritish hamda shakllantirish) alohida ixtisoslashgan guruhlar tomonidan amalga oshirilgan. Degrezi mahallasining nomi ham uning ma'lum davrlarda metall quyish markazi bo'lganidan dalolat beradi. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, sanitariya va texnologik omillar sababli asosiy ishlab chiqarish sexlari shahar tashqarisidagi Mug'uloni-kari qishlog'iga ko'chirilgan. Shunga qaramay, Degrezi mahallasida quyma buyumlar savdosi saqlanib qolgan.

Buxoro shahrining markaziy hududlarida hunarmandchilik yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lib, metallga ishlov berish va qimmatbaho buyumlar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etgan. Misgarlar, odatda, kichik ustaxonalarda mustaqil faoliyat yuritgan va muayyan hududda to'plangan holda joylashmagan. Bu holat mis buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasining nisbatan sodda bo'lgani bilan izohlanadi.

Zargarlik hunari esa yuqori malaka, murakkab texnika va barqaror iste'mol bozori tufayli ma'lum hududlarda jamlangan holda rivojlangan. Azizon va Qosimshayx mahallalarining zargarlik markaziga aylanishi ularning "Zargarlik gumbazi"ga yaqin joylashganligi bilan bog'liq. XX asr boshlarida qariyb 400 nafar zargarining rasmiy ro'yxatga olingani Buxoroda zargarlik hunarining keng ko'lamda va rivojlangan shaklda mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Metallga ishlov berish bilan bog'liq hunarlar orasida asosiy yo'nalishlardan tashqari, son jihatidan kichik bo'lsa-da, muhim ixtisoslashgan tarmoqlar ham mavjud bo'lgan. Shulardan biri bronza quyish (rextagari), ikkinchisi esa oltin va kumushni aralashmalardan tozalash (gaxbandi) hunaridir. Buxoro shahrida bronza quyish bilan taxminan 30 nafar usta shug'ullangani qayd etiladi. Bu holat bronza buyumlarga bo'lgan ehtiyojning barqaror, biroq cheklangan miqyosda bo'lganini ko'rsatadi.

Gaxbandi hunari esa yuqori malaka va murakkab texnologik jarayonlarni talab etgan bo'lib, unda qimmatbaho metallarning mexanik va kimyoviy aralashmalardan tozalanishi amalga oshirilgan. Odatda bu ish zargarlik bilan shug'ullanuvchi ustalar tomonidan bajarilgan, chunki tozalangan oltin va kumush bevosita zargarlik buyumlari tayyorlashda qo'llanilgan.

Yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar — duradgorlar — asosan arkning shimoliy qismida joylashgan mahallalarda istiqomat qilgan. Ular orasida tokarlar alohida guruhni tashkil etib, Xarroton mahallasida aholining asosiy qismini tashkil etgan. Mahalla nomining o'zi ham ushbu kasb egalari bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Tokarlarning bir qismi unga qo'shni bo'lgan Chashma-Ayub mahallasida joylashgan.

Yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlarning yana bir guruhi — sotutaroshlar — turli mayda yog'och xo'jalik buyumlari tayyorlash bilan shug'ullangan. Ular asosan Qozi Mir Xo'ja (Sotutaroshon) mahallasida yashagan bo'lib, ustaxonalari Hazrati Imom darvozasiga olib boruvchi ko'chaning ikki tomonida joylashgan edi.

Buxoroda katta guruh hunarmandlar turli xil kiyim-kechak ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Xalat tikish asosan **Morkush mahallasida**, qo'y terisidan tayyorlanadigan tuluplar (pustinduz) esa **Pustinduzon** deb ataluvchi ikki mahallada amalga oshirilgan. Mo'ynali bosh kiyimlar (telpakdo'zi) tikish bilan shug'ullangan ustalar esa **Dust-churog'asi mahallasida** jamlangan.

Shaharda soni kam bo'lgan zarduzlar markaziy hududning turli mavzellarida alohida oilalar yoki kichik guruhlar sifatida yashagan. Ularning yagona yirik guruhi **Mir-Dustum mavzesida** jamlangan bo'lib, bu mavze xalq orasida "Zardo'zlar mavzesi" (Guzari zarduzon) deb atalgan. Mazkur mavzede eng malakali ustalar va tadbirkorlar yashagan, shuningdek, yollanma ustalar (xalfa) ishlaydigan nisbatan katta ustaxonalar mavjud bo'lgan.

Buxoro shahrida qurilish hunarmandchiligi bir nechta ixcham va aniq ixtisoslashgan guruhlar orqali namoyon bo'lgan. Ushbu sohada ikki asosiy mutaxassislik ajralib turgan: tosh teruvchilar va g'ishtkorlar (gilkorlar) hamda duradgorlar (durezgarlar).

Quruvchi ustalarning bir guruhi Mullo-Xoki-rox (Ponobixo) mavzesida istiqomat qilgan. Mazkur mavze aholisi, asosan, Ponob qishlog'idan kelib chiqqan bo'lib, yopiq kasbiy jamoani tashkil etgan va deyarli to'liq qurilish hunarmandchiligi, xususan gilkorlik bilan shug'ullangan. Aynan shu muhitdan O'zSSR Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, taniqli ganch (gips) o'ymakori usta Shirin Murodov yetishib chiqqani mazkur mavzening kasbiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Quruvchi ustalarning ikkinchi yirik guruhi Xiyobon ko'chasi bo'ylab joylashgan mavzelerde yashagan. Bu hududda, ayniqsa, Xo'ja-To'yg'un mavzesi qurilish hunarmandchiligi vakillarining yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turgan. Manbalarga ko'ra, ushbu mavzede quruvchi ustalar aholining yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan.

Shuningdek, qurilish hunarmandchiligi bilan shug'ullangan ustalarning muhim qismi Jo'ybor hududida joylashgan bo'lib, bu hududga Jo'zvor, Dastorbofdon va Shahrinav mavzolari kirgan. Bundan tashqari, Shergiron darvozasidan shimolda istiqomat qilgan aholi orasida ham quruvchi ustalar salmoqli o'rin tutgan. Mazkur hududlarda, asosan, g'ishtkorlar va tosh teruvchilar yashagan bo'lib, ular shahar qurilish tizimida muhim rol o'ynagan.

Buxoro shahrida oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar son jihatidan eng katta kasbiy qatlamlardan birini tashkil etgan. Ular shahar aholisining kundalik ehtiyojlarini ta'minlashda muhim iqtisodiy va ijtimoiy vazifani bajargan.

Mazkur guruh tarkibiga novvoylar, qandolatchilar, oshpazlar, qassoblar hamda oziq-ovqat ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq boshqa kasb egalari kirgan. Ushbu hunarlar o'z ichida yana bir qator tor ixtisosliklarga bo'lingan bo'lib, bu oziq-ovqat ta'minoti tizimining murakkab va yaxshi yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy jihatdan oziq-ovqat hunarmandlari poytaxtning mehnatkash aholisi tarkibiga mansub bo'lib, ular ham boshqa hunarmandlar singari o'z kasbiy uyushmalari doirasida faoliyat yuritgan. Hududiy joylashuv nuqtayi nazaridan ushbu kasb egalari butun shahar bo'ylab tarqalgan holda yashagan va Buxoroning turli mahalla hamda mavzalaridagi aholini o'z mahsulotlari bilan muntazam ta'minlab kelgan.

Buxoro shahrining mehnatkash aholisi orasida **suv tashuvchilar — meshkoblar** muhim ijtimoiy-iqtisodiy qatlamni tashkil etgan. Ularning asosiy vazifasi shahar hududida joylashgan ko'plab suv havzalaridan (hovuzlar va tahoratxonalaridan) doimiy mijozlarning uylariga ichimlik va xo'jalik ehtiyojlari uchun suv yetkazib berishdan iborat bo'lgan.

Manbalarga ko'ra, meshkoblarning umumiy soni **bir necha yuz kishiga** yetgan. Bu holat Buxoro shahrida **80 dan ortiq suv havzasi** mavjud bo'lgani va har bir hovuz atrofida, odatda, **30–40 nafardan ortiq meshkob** faoliyat yuritgani bilan izohlanadi. Meshkoblar, qoida tariqasida, aynan shu suv manbalari atrofida joylashgan bo'lib, ularning kundalik mehnati shahar suv ta'minoti tizimining muhim bo'g'inini tashkil etgan.

Meshkoblarning ijtimoiy hayotdagi eng muhim vazifalaridan yana biri **yong'in xavfsizligini ta'minlash** bilan bog'liq bo'lgan. Shaharda yong'in sodir bo'lgan paytda maxsus nog'ora (baraban) ovozi orqali ogohlantirish berilgan va meshkoblar suv to'la teridan yasalgan meshlar bilan zudlik bilan voqea joyiga yetib kelganlar. Shu tariqa, ular shahar infratuzilmasining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Hunarmandlar bilan bir qatorda, Buxoro shahri aholisi tarkibida **“dehqonlar” deb atalgan ijtimoiy guruh** ham muhim o'rin egallagan. Ular shaharning turli mavzalarida, ayniqsa uning **sharqiy qismida** istiqomat qilganlar.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Buxoro sharoitida “dehqon” atamasi faqat bevosita yerga ishlov beruvchi shaxsni anglatmagan. Mazkur tushuncha, ayniqsa shahar muhitida, **yer egaligi yoki yer daromadlari hisobiga yashovchi shaxslarni** ham qamrab olgan. Shu bois, Buxoro dehqonlari orasida yerga bevosita ishlov beruvchilar bilan bir qatorda, yerni ijaraga berish yoki undan tushadigan daromad evaziga kun kechirgan shahar aholisi vakillari ham bo'lgan.

Buxoro shahrining nihoyatda zich qurilganiga qaramay, tarixiy manbalarda **shahar ichida dehqonchilik va bog'dorchilik uchun mo'ljallangan yer uchastkalari** saqlanib qolganligi qayd etiladi. Bunday maydonlar asosan shaharning **sharqiy va janubi-g'arbiy qismlarida** joylashgan edi.

Parfenov–Fenin rejasida mazkur yerlar haydaladigan yerlar sifatida belgilangan bo'lsa-da, amalda ularning katta qismi **bog' va polizlar** bilan band bo'lgan. Faqat ayrim kichik uchastkalarda chorva uchun yem-xashak sifatida foydalanilgan, hali yashil hoida o'rib olinadigan **arpa** ekilgan. Ayniqsa shaharning janubi-g'arbiy qismidagi yerlar ana shunday ekinlar bilan band bo'lib, ular tashqarida joylashgan ariqdan **chig'ir** yordamida sug'orilgan.

Shaharning sharqiy (Dilkushoyi darun, Kuchabog' va boshqalar), shimoli-g'arbiy (Bahodirbiy, Do'rmon) hamda janubi-g'arbiy qismlarida joylashgan bog'lar, asosan, **zodagonlar va yirik mulkdorlarga** tegishli bo'lgan. Shaharning janubi-g'arbiy hududida joylashgan “Bog'i Botur-xona” esa **amir haramiga qarashli** bo'lib, yoz mavsumida hukmdor oilasining dam olish maskani sifatida foydalanilgan.

Buxoro o'rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyoning yirik savdo markazlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, bu yerda turli kasb egalari va savdogar guruhlari faoliyat yuritgan. Har bir savdogar guruhi savdo qilgan mahsulot turiga qarab alohida nom bilan atalgan va odatda maxsus savdo qatorlarida faoliyat olib borgan.

Bir xil mahsulot bilan shug'ullanuvchi savdogarlar ko'pincha shaharning muayyan qismlarida jamlangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan bu hududiy konsentratsiya yanada kuchaygan. Ayrim mahallalarning savdo qatorlariga yaqin joylashuvi natijasida, bu hududlarda bir xil ixtisosga ega bo'lgan bir nechta savdogar oilalari istiqomat qilgan. Ushbu holat Buxoro shahrida **savdo infratuzilmasining hududiy tashkil topishi**, kasbiy guruhlarining shakllanishi hamda shahar iqtisodiy makonining rivojlanishida muhim omil bo'lgan. Mahalliy savdogarlar bilan bir qatorda, Buxoro shahrida **chet hududlardan kelgan savdogarlar** ham salmoqli o'rin

tutgan. Ularning ko‘pchiligi shaharda uzoq muddat yashab, savdo faoliyatini bir necha oy, ayrim hollarda esa yillar davomida olib borgan. Kelgindi savdogarlarning asosiy qismi **karvonsaroylarda** istiqomat qilgan bo‘lib, ular bu yerda “hujra” deb ataluvchi alohida xonalarni ijaraga olganlar.

Buxorodagi karvonsaroylarning katta qismi **muayyan savdo yo‘nalishlari yoki tovar turlariga ixtisoslashgan** edi. Ayrim karvonsaroylar esa Buxoro bilan doimiy savdo aloqalariga ega bo‘lgan muayyan shahar yoki mintaqalardan kelgan savdogarlar jamoasiga tegishli bo‘lgan. Jumladan, Buxoroda Xiva savdogarlariga qarashli maxsus karvonsaroy mavjud bo‘lib, ular orasida eng mashhurlaridan biri “Saroyi Urgandjiho” (ya’ni, Xivaliklar saroyi) sanalgan. Bunday karvonsaroylar nafaqat turar joy, balki savdo, saqlash va bitimlar tuziladigan markaz vazifasini ham bajargan.

Savdoning rivojlanishi bilan bog‘liq holda Buxoroda **yuklarni qadoqlash bilan shug‘ullanuvchi maxsus kasbiy guruh — borbandlar** shakllangan. Yuk qadoqlovchilar suv tashuvchilarga o‘xshash tarzda ma’lum obyektlar, ya’ni karvonsaroylar atrofida jamlanib, ayrim tovar turlarini qadoqlash bo‘yicha tor ixtisosga ega bo‘lganlar.

Borbandlarning eng yirik va faol guruhi **qorako‘l terilari savdosi** bilan bog‘liq hududlarda faoliyat yuritgan. Ular **qorako‘l** terilarini yig‘ish, saralash va uzoq masofalarga tashishga mos holda qadoqlash bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lib, Buxoro savdo tizimining muhim texnik va tashkiliy bo‘g‘inini tashkil etgan. Ushbu kasb vakillari savdo jarayonining uzluksizligini ta’minlab, mahsulotlarning xavfsiz yetkazilishida muhim rol o‘ynagan.

Xulosa. O.A. Suxarevaning etnografik materiallari asosida XIX-XX asr boshlarida Buxoro shahrida hunarmandchilik tizimi hududiy va kasbiy ixtisoslashuvga asoslangan barqaror model sifatida faoliyat yuritgan. Ayrim mahallalarning kasb nomi bilan atalishi va ularning uzluksiz faoliyati hunarmandlar korporatsiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi mustahkamligini ko‘rsatadi. Karvonsaroylar atrofida shakllangan ixtisoslashgan savdo guruhlarini ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini uyg‘unlashtirib, shahar iqtisodiyotining samarali ishlashini ta’minlagan. Shu bilan birga, hunarmandchilik tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy barqarorlikni saqlashda ham markaziy rol o‘ynagan, bu esa Buxoroni Markaziy Osiyoda kasbiy-hududiy tartibga asoslangan ijtimoiy model sifatida o‘rganishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Юлдашев М. Ю. К вопросу о ремесленном производстве в Бухарском ханстве в XVI–XVIII веках // *Общественные науки в Узбекистане*. — 1961. — №4. — С. 31.
2. Женкинсон Р. Путешествие в Среднюю Азию, 1558—1560 гг. // *Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке*. — Л.: Изд-во, 1937. — С. 182.
3. Meyendorff. *Voyage d'Orenbourg à Boukhara fait en 1820*. — Paris: 1826. — P. 216, 217, 219, 221.
4. Вамбери А. *Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи*. — Тошкент: Info Capital Group, 2019. — 368 б.
5. Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана // *Вестник выставки*. — 1909. — С. 6.
6. Гребенкин Н. Ф. Ремесленная деятельность таджиков Зеравшанского округа // *Туркестанский сборник*. — Т. 19 52. — С. 511–514.
7. Гончарова П. А. Монография о ремесле бухарских зардозов. — *Qo‘lyozma, O‘zSSR San‘at muzeyi arxivi*, № 269.
8. Qilichev R. *Buxoro shahrida hunarmandchilik*. — T.: 1996.
9. Qilichev R. *XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik. Nomzodlik diss. avtoref*. — T., 1997.
10. Сухарева О. А. Позднефеодальный город Бухара конца XIX — начала XX века. Ремесленная промышленность. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1962. — 194 с.
11. Сухарева О. А. *Истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки*. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. — 145 с.
12. Хаников Н. В. *Описание Бухарского ханства*. — СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. — 290 с.